

DAVLAT TILI VA NUTQ ETIKASI: RASMIY MULOQOT MADANIYATI**Normurodova Zarifa Ruziqulovna**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

Abdukarimova Rayxona Umidjon qizi

Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17734287>

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat tili va nutq etikasi masalalari, xususan, rasmiy muomala madaniyatining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Unda davlat tili sifatida o'zbek tilining rasmiy hujjatlar, xizmat yozishmalari hamda idoraviy muloqot jarayonlarida to'g'ri, adabiy me'yorlarga muvofiq qo'llanishining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, rasmiy uslubda etik me'yorlarga amal qilish, muloqot jarayonida hurmat, odob va til madaniyati tamoyillariga rioya etishning kasbiy va ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada nutq etikasi va rasmiy muomala madaniyatining uzviy bog'liqligi, ularning jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida tutgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat tili, nutq etikasi, rasmiy muomala madaniyati, adabiy til me'yori, muloqot odobi, kasbiy madaniyat.

STATE LANGUAGE AND SPEECH ETHICS: CULTURE OF FORMAL COMMUNICATION

Abstract. This article discusses the issues of the state language and speech ethics, in particular, the specific aspects of the culture of official communication. It analyzes the importance of the correct, literary use of the Uzbek language as the state language in official documents, official correspondence, and departmental communication processes. It also substantiates the professional and social importance of adhering to ethical standards in the official style, observing the principles of respect, etiquette and language culture in the communication process. The article analyzes the inextricable link between speech ethics and the culture of official communication, and their role in the socio-cultural development of society.

Key words: state language, speech ethics, formal culture, literary language norms, communication etiquette, professional culture.

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЯЗЫК И РЕЧЕВАЯ ЭТИКА: КУЛЬТУРА ФОРМАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы государственного языка и речевой этики, в частности, особенности культуры официального общения.

Анализируется значение правильного, литературного использования узбекского языка как государственного в официальных документах, официальной переписке и процессах ведомственного общения. Обосновывается профессионально-общественная значимость соблюдения этических норм в официально-деловом стиле, принципов уважения, этикета и культуры речи в процессе общения. Анализируется неразрывная связь речевой этики и культуры официального общения, их роль в социокультурном развитии общества.

Ключевые слова: государственный язык, речевая этика, формальная культура, нормы литературного языка, этикет общения, профессиональная культура.

Til – bu xalqning ma'naviy hazinasini, tafakkur va madaniyatining ifodasidir. Har bir millatning o'ziga xosligi, qadriyati va ma'naviy yuksakligi, avvalo, uning tilida namoyon bo'ladi. Davlat tili esa, bu tilning eng yuksak ifodalaydi.

Davlat maqomi bo'lib, u xalqning siyosiy va huquqiy mustaqilligini tili –milliy g'urur va mustaqillik ramzidir. U mamlakatda huquqiy asosga ega bo'lgan, barcha rasmiy idora va tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida, OAVda, qonunlarda va hujjatlarda asosiy aloqa vositasi sifatida amal qiladi¹. Tilshunos olim D. Jo'rayeva ta'kidlaganidek, “Davlat tili - xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va tafakkuri mujassam bo'lgan ijtimoiy hodisadir”. Shu jihatdan davlat tili faqat aloqa vositasi emas, balki milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati va madaniyat ko'rsatkichidir. Har bir fuqaro davlat tiliga hurmat bilan qarshi, uni ravon va to'g'ri qo'llashi zarur. Tilga befarqlik-millatga befarqlikdir. Aytish joizki, mustaqillikka erishgandan so'ng davlat tilining mavqei nihoyatda oshdi. “Davlat tili haqida” respublikamizning qonuni qabul qilindi. O'zbek tilining davlatimizning xalq turmushidagi o'rni yanada mustahkamlanib, ish yuritish, o'quv, ilmiy, badiiy adabiyotlar nashr etish sohasidagi mavqei yanada yuqori ko'tarildi.

Oliy o'quv yurtlarida nutq madaniyatini o'rgatish sohasidagi ta'lim yo'nalishiga ham e'tibor kuchaydi.²

Davlat tili faqat rasmiy aloqa vositasi, balki nutq madaniyati va etikasini shakllantiruvchi asosiy poydevoridir, chunki har bir davlat xodimi, pedagog yoki mutaxassis rasmiy muloqotda adabiy norma, so'z tanlash madaniyati va uslubga rioya qilishi kerak. Davlat tilida toza, aniq lo'nda va odobli so'zlash - nafaqat lingvistik, balki axloqiy majburiyatdir. Shuningdek, davlat tilining nufuzi fuqarolarning unga bo'lgan hurmati, savodxonligi va madaniyat darajasi bilan belgilanadi. Shu bois, nutq etikasi davlat tilining amalda yuksak mavqega ega bo'lishini ta'minlaydi. Tilni noto'g'ri, qo'pol, rasmiyatchilik bilan ishlatish esa davlat tiliga nisbatan bepisandlik belgisi sifatida baholanadi.

Nutq madaniyati – bu fikrni aniq, mantiqan asosli, axloqiy, estetik jihatdan ifodalash. Shuningdek, nutqning adabiy til me'yorlariga, mantiqiy tartibga va kommunikativ etiketaga mos bo'lishidir. Jamiyatda nutq madaniyatining rivoji insonlar o'rtasidagi muloqot sifati, o'zaro hurmat va ijtimoiy muvozanat darajasini belgilaydi. Professor N. Mahmudov ta'kidlaganidek, “Nutq madaniyati – bu inson tafakkurining oynasi, uning ichki dunyosini ko'rsatadigan madaniyat darajasidir”. Muomala madaniyati esa oddiy kundalik aloqalarda odob-axloq, kommunikatsiya qoidalariga rioya qilishni anglatadi. Rasmiy muloqotda davlat xizmatchilari, rahbarlar, tashkilot xodimlari – nutq etikasi va nutq madaniyatiga alohida e'tibor berishlari lozim.³

Rasmiy yozishmalarda, masalan, ariza, buyruq, ma'lumotnoma, shikoyat, tu- shuntirish xati kabi hujjatlarda grammatik to'g'rilik, uslubiy aniqlik va etik me'yorlarga rioya etilishi muomala madaniyatining asosiy talabidir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, nutq etikasi bo'yicha hozirgi kunda bir qancha muammolar mavjud. Jumladan, noqonuniy yoki hurmatsiz murojaatlar, hazil qilish, keskin tanqid – bu nutq etikasi tamoyillarini buzadi. Ijtimoiy tarmoqlarda “negativ nutq” va “kamsituvchi fikrlar” ko'paymoqda. Rasmiy hujjatlarda tilda qoidabuzarliklar nutq madaniyati va etikasi darajasini tushiradi.

Rasmiy muomala – bu davlat idoralari, tashkilotlar, ta'limiy muassasalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi rasmiy muloqot shakli bo'lib, u adabiy til me'yorlari, ruxsat etilgan uslublar, axloqiy – etik qoidalar asosida amalga oshiriladi.

¹O'zbekiston Respublikasi “Davlat tili to'g'risida”gi Qonun.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish to'g'risida”gi farmoni 2019-yil 21-oktabr.

³ Mahmudov N va boshqalar. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish –Toshkent :Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2013. -B. 38

Tilshunoslikda bu tushuncha rasmiy ish yuritish uslubi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u davlat boshqaruvi, hujjat aylanishi, xizmat yozishmalari va rasmiy nutqlarda qo'llaniladigan til tizimini ifodalaydi. Rasmiy muloqot – bu nafaqat so'zlashuv, balki xulq, muloqot va yozish madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Shaxsning rasmiy vaziyatdagi nutqi uning madaniyati, odobi, fikrini ifodalash darajasi va boshqalarga nisbatan hurmatini namoyon etadi. Rasmiy muomala og'zaki va yozma shaklda bo'lishi mumkin Og'zaki rasmiy muomala: majlis, yig'ilish, hisobot, taqdimot, intervyu, telefon suhbatlari, rasmiy uchrashuvlar va boshqalar. Yozma rasmiy muomala: buyruq, farmoyish, ariza, ma'lumotnoma, hisobot, shartnoma, iltimosnoma, shikoyat, bayonnoma, xat va boshqalar. Har ikkala shaklda ham aniq, lo'nda, odobli va tushunarli ifoda vositalari ishlatiladi. Yozma shaklda rasmiy shtamplar, terminlar, bir xil hujjat qoliplari muhim rol o'ynaydi. Rasmiy muomala nafaqat og'zaki, balki yozma shaklda ham madaniy bo'lishi kerak.

Ayniqsa, rahbar va xodim o'rtasidagi muloqotda nutq odobi, murojaat shakllari, salomlashuv va minnatdorchilik bildirish kabi etik qoidalar muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmiy muomala madaniyati nutq etikasining amaliy ko'rinishidir, chunki nutq etikasida nazariy tarzda belgilangan odob, muloqot qoidalari amalda aynan rasmiy muomalada namoyon bo'ladi.

Masalan, rahbar va xodim o'rtasidagi muloqotda rasmiy murojaat shakllari ishlatiladi.

Rasmiy nutqda qo'pol, hissiy, ijtimoiy jargon yoki "internet tili" ga xos iboralardan qochiladi. Har bir so'z, ibora, murojaat muloqot ishtirokchilarining madaniyatini ko'rsatadi.

Rasmiy muloqot madaniyati –bu davlat tilida to'g'ri, aniq, madaniyatli va etik me'yorlarga muvofiq so'zlash, yozish, fikr bildirish san'atidir.

Shuningdek, rasmiy muloqot madaniyati davlat boshqaruvi, ta'lim, fan, diplomatiya va xizmat sohalarida insonlar o'rtasidagi ishonchli muloqotni ta'minlaydi.

Rasmiy muomala madaniyatiga ega bo'lgan inson nafaqat savodli, balki jamiyatda obro'- e'tiborga ega shaxsdir. Muomala madaniyatining rivojlanishida insonning ma'naviy saviyasi, ijtimoiy tajribasi hamda umumiy madaniyati bevosita rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir soha vakili o'z faoliyatida rasmiy muomala madaniyatiga amal qilishi, davlat tili me'yorlariga rioya etishi va nutq etikasi tamoyillarini chuqur egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish to'g'risida"gi PF-5850-sonli farmoni
3. Jo'rayev.T, Halimov.S Nutq madaniyati : O'quv qo'llanma Samarqand: Tibbiyot ko'zgusi, 2021. 108 b.
4. N.Mahmudov va boshqalar. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish.-Toshkent : Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2013, 144 b.
5. Hamidov M.O Notqlik san'ati: O'quv qo'llanma "O'zkitobsavod nashriyot"
6. NMIU, Toshkent - 2023, 256 b.
7. M.Aminov va boshq. Davlat tilida ish yuritish:amaliy qo'llanma-Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti DUK, 2021 .528 b.
8. B.Husanov,V.G'ulomov Muomala madaniyati:darslik-Toshkent "Ta'lim Nashriyoti", "Iqtisod-moliya" 2009. 156 b.